

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha

prorektor

R.G'.Jumayev

“25” 02 2023-yil

“KELISHILDI”

O'quv-uslubiy departament

boshlig'i M.A.Tursunov

“25” 02 2023-yil



“KELISHILDI”

Iqtisodiyot va tuzilm. fakulteti

dekani D.Sh. Yavmatov

“25” 02 2023-yil

5610100- Xizmatlar sohasi (turizmni tashkil etish va boshqarish) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabalariga “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Turizm va mehmonxona xo'jaligi marketingi”, “Turopereyting”, “Turizm:nazariya va amaliyot” fanlaridan Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur, nazorat variantlari va baholash me'zonlari

Buxoro-2023


Dastur Marketing management kafedrasida muhokama qilingan va tavsiya etilgan
(2023-yil 28.01.26-hayomnoma)

Dastur Buxoro universitetining Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.
(2023-yil 31.01.28 - sonli hayomnoma)

Tuzuvchilari: Ph.D. J.R. Toxirov
dots. S.U. Tadiyeva
dots. Z.T. Jo'rayeva



Tagratchilari: prof. B.N. Navruz-zoda
dots. H.R. Hamroyev

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 iyunda 1963-son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 22 maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga 2015 6-noyabrda 1963-1-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 1963-1-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

Muqaddima

I. Umumiy qoidalar

II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASISI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi ko'rinishdagi bir yoki bir necha attestatsiya sinovlaridan iborat:

ayrim fan bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovi;
ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlarga yakuniy attestatsiya sinovi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Ayrim fan bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning muvofiq davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmundan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi ayrim fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha davlat ta'lim standartida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasiga albatta bitiruv malakaviy ishning (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi kiritiladi. Ayrim yo'nalishlar uchun bu tartibga isitiso kiritish faqat Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan hal etiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda o'tkaziladi.

9. Tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan, turdosh yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yetakchi professor-o'qituvchilarini jalb etgan holda, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishini (magistrlik dissertatsiyasini) baholash tartiblari ishlab chiqiladi va tayanch oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda tegishti oliy ta'lim muassasalariga belgilangan tartibda yetkaziladi.

III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASISI KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tegishti vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qar'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida ishlayotgan olimlar, ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi keima-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishti yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki marta dan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Oliy ta'lim muassasasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan ayrim fanlar bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovlari, ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlarga yakuniy attestatsiya sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishti soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi, fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

15. Yakuniy attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassisliklari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi Davlat test markazi vakillari ishtirokida o'tkaziladi.

IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida seminar-kengash o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi

boshlanishidan olti oy ilgari talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar dasturlar bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlariga va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasiga tegishli ta'lim dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan attestatsiya sinovlarining barcha turlaridan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq daraja va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom beriladi.

22. O'quv dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan kam bo'lmagan), shuningdek yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining har biri bo'yicha kamida 86 ball o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavrlar bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) o'tolmagan talaba uch yil ichida yakuniy davlat attestatsiyasiga (o'tolmagan attestatsiya sinovlarining har bir turi bo'yicha bir marta) qaytadan kiritiladi.

Muddatli harbiy xizmatda bo'lish va 3 yoshga to'lmagan bola parvarishi bo'yicha ta'vil ko'rsatilgan 3 yillik muddatga kirmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan ikkinchi marta ham o'ta olmagan talabalar masalasi ularning arizasiga muvofiq Oliy va o'ta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotoma beriladi va u o'tatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli kursga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

25. Aytim fan (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi qoniqsiz ko'rsatkich (55 balldan kam) talabani boshqa fanlar (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha attestatsiya sinovlaridan o'tish huquqidan mahrum etmaydi.

26. Uzrlil sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

31. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining hisobvoti yakuniy attestatsiya sinovlari tugaganidan so'ng bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ta maxsus ta'lim vazirligi hamda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan tegishli vazirlik, idoralarga taqdim etiladi.

V. YAKUNIY QOIDALAR

32. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modd.

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” fanidan Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Har tomonlama kamol topgan yuksak mahaviyati shaxsni tayyorlab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muxim rol uynovchi fan iqtisodiyot nazariyasi fanining ushbu dasturi jamiyatning iqtisodiy negizi, uning tarkibiy qismlari, umumiy iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa qonuniyatlari, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy isloxoatlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jaxon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalari kabi masalalarni qamrab olgan. Xususan, mazkur faning ahamiyati keyingi yillarda ro'y berayotgan jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralarini izlab topish va izchil amalga oshirish xamda bu borada erishilayotgan yutuqlar orgali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani talabalarni jamiyada ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabada bo'lishda, mamlakarni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushinishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurullaniradi. Shuningdek, bu fan jamiyatning har bir a'zosi ni g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, mahaviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga axamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.

Fanning vazifalari - talabalarni nazariy bilimlar, iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurullanirish; iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko'maklashish; ular onggiga milliy istiqlol g'oyasini va milliy makuraning asosiy qoidalarini singdirish; iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ekinlashirish va islohoatlar ni chuqurlashtirish asosida xozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning dolzarb muammolarini ochib berish; iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar tug'risida amaliy ko'nikmalarni hosil qilish.

Fan bo'yicha talabanning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Iqtisodiyot nazariyasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- iqtisodiyot nazariyasi asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini bilishi;
- talaba iqtisodiy hodisa va jarayonlarni taxlil qilish usullarini qo'llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni), iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- talaba iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilish va xulosa chiqarish; iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bulgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kirib, u bakalavriyatning barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi. Mazkur fan boshqa iqtisodiy fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi iqtisodiy fanlar (moliya-kredit, bank ishi, soliq va soliqqa tortish, buxgalleriya hisobi va audit, sug'urta va bojxona ishi va H-K) dan xam ozuqa oladi. U tadqiqot usullari bo'yicha boshqa ijtimoiy (falsafa, tarix, huquqshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) fanlar bilan ham mustahkam bog'liqdir.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani talabalarda ilmiy dunyoqarash va iqtisodiy tafakkurni, jamiyatning iqtisodiy asosini tushunish, ob'yektiv iqtisodiy qonun va jarayonlarga ongli munosabada bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi. Barcha amaliy iqtisodiy fanlarning nazariy-uslubiy asoslari to'g'risida bilim hosil qiladi. Shunga ko'ra, fanning ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishdagi o'rni muhim hisoblanadi.

Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, matruza matnlar, targatma materiallar, elektron materiallar, keys-texnologiyalardan foydalaniladi.

II. Asosiy nazariy qism

1-Mavzu. "Iqtisodiy nazariyast" fanining predmeti va bilish ushbi.

Iqtisodiy tushunchalar va uning qanrov jihatidan turarl. Iqtisodiy fanlarning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: Ishlab chiqarish, taqsimot, avtoshlash, iste'mol. Ehtiyojlarining mazmuni va ularning turkumlanishi. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va G'arb halaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiy nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fizokratlar, ingliz klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marginalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiyot nazariyasi fanining talaba-yoshlar ongida ilmiy dunyogorashni shakllantirishda va milliy istiqbol g'oyasini singdirishdagi ahamiyati. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi. Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish usullari: ilmiy abstraksiya, induktsiya va deduktsiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va fazalardan foydalanish. Mikro va makroiqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiyot nazariyasi fanining boyitilishi va ularni o'rganishning ilmiy-uslubiy ahamiyati.

2-Mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-birining o'rini bosishi. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni. O'sha va uzoq davrdagi ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Tovar va xizmatlar natijali va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Yalpi ijtimoiy mahsulot. Takroriy hisob. O'rta mahsulot, pirovard mahsulot, qo'shilgan mahsulot, sof mahsulot. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot. Qo'shimcha mahsulot nomasi va massasi. Qo'shimcha mahsulotning zarurligi va ahamiyati. Ishlab chiqarish funksiyasi. Umumiy, o'rta va so'nggi qo'shilgan mahsulot, ularni hisoblash tartibi. So'nggi qo'shilgan omil unumdorligi. Unumdorlikning pasayib borishi qonuni. Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi

omillar. Samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari. ETTning evolyusion va revolyusion shakllari. Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirishi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ma'ruzalarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi va uning sabablari.

3-Mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga birli xil yondashuvlar. tarixiy-formatsion, madaniylashtirish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. Sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish turlari. Sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industriylashtirishga bo'lgan jamiyat, industriylashgan jamiyat, yuqori industriylashgan (axborotlashgan) jamiyat. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Mulik shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgaritish usullari: milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish. Davlat mulkini xususiy lashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

4-Mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir.

Ijtimoiy xo'jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarishning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning natijali va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Individual va ijtimoiy zaruriy natijali individual va ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari. Ijtimoiy-zaruriy ish vaqti. Mehnatning ikki yoqlama tavsifi: aniq mehnat va abstrakt mehnat. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta'siri. Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymati va narxining o'zaro farqlanish shart-sharoitlari. Keyingi qo'shilgan miqdor natijali nazariyasi. Umumiy va aniq natijali. Natijalikning pasayib borishi. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor natijali nazariyasining o'zaro aloqasi hamda bir-birini to'ldirishi. Qiymat

paradoksi. Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to'g'risidagi metalistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiyamat o'ltchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi, to'lov vositasi. Narxlar o'ltchovi (masshab). Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro bog'liqligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari. O'zbekistonda milliy valyuta - sumning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

5-Mavzu. Bozor Iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy sub'ektlar harakatining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining boshqa ijobiy jihatlari. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari va salbiy jihatlari. "Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob'ektlari va sub'ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanishi. Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo'nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

6-Mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish - barcha mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion va evolyusion shakllari. Ma'muriy-buyrukbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari. O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. O'tish davri iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli, uning tamoyillari va xususiyatlari. O'zbek modelida hozirgi davrdagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlardan himoya vositasining mujassamlashtirilishi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichlari.

12

Iqtisodiy islohotlarning mazmuni. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda milliy tarqiqiyot bosqichlari. Modernizatsiyalash jarayonining tamoyillari, asosiy belgi va tarkibiy qismlari. O'zbekistonda modernizatsiyalash jarayonlarining asosiy yo'nalishlari. 2016 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari.

7-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Griffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'zini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari. Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko'rishi. Naflilik funksiyasi. So'rangi qo'shilgan naflilik. Naflilikni maksimalashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Betarqqlik egri chizig'i. Betarqqlik karrasi. Iste'molchi byudjetining cheklanganligi. Byudjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

8-Mavzu. Raqobat va monopoliya.

Raqobatchining mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatchining vazifalari. Raqobatchining turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va x.k. Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koefitsienti. Monopolistik birlashmalar shakllari. Monopoliyalarning afzalliklari va

13

jitimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Shumpeter eipotezasi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik. O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora- tadbirlar. Mamlakatimizda raqobat muhitini kuchaytirishning zarurigi va yo'nalishlari. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari. Milliy iqtisodiyot raqobatdardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

9-Mavzu. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari.

Narxning mazmuni va uning ob'ektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovaridagi ikki xil xususiyatning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari. Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. SHartnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx partiet. Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha etakchilik. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi munosabati bilan O'zbekistonda energiya manbalari va kommunal xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha narxlarning ko'tarilishini cheklash mexanizmining ishlab chiqilganligi.

10-Mavzu. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi.

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxonalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Korxonalar faoliyatining tashkili qilinishi. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Aksiya va uning turlari. Aksiya kursi. Dividend va ta'sischiilar foydasi. Nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment - korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va

14

vazifalari. O'zbekistonda kichik va o'rtaviy biznes hamda xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi, rag'batlantirilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, umumiy kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarning doiraviy aylanishi. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Tadbirkorlik kapitalini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va qarorlarning hayotga tadbir etilishi. Investitsiyaviy jozibadorlikning kuchaytirilishi.

11-Mavzu. Korxonalar (firma) xarajatlari va foydasi.

Ishlab chiqarish xarajatlarni tadqiq etishdagi yondashuvlar. Jitimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarning mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajalar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajalar. O'racha va umumiy xarajalar. So'nggi qo'shilgan xarajalar tushunchasi. Xarajatlarni minimalashtirish qoidasi. Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Natijalar o'zgarishiga umumdorlik pasayib borishi qonunining ta'siri. Ishlab chiqarish miqyosining jiboy samarasi. Tamark. Korxonalar (firma)ning pul tushumlari va foydasi. Xarajalar va daromadlar egri chizig'i. Zarar ko'tmaslik nuqtasi. Umumiy foyda. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalleriya foydasining farqlanishi. Me'yordagi foyda. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Korxonalarining bankrot bo'lishi (sinishi) va sanatsiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimalashtirish sharti va uni ko'paytirish yo'llari. Foyda miqdorini ko'paytirishda moddiy resurslarni tejashning ahamiyati. Iqtisodiyotni rivojlantirishning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustivor yo'nalishlarda belgilangan mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

12-Mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari.

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omil", qo'shilgan omil unumdorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari. Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining taqabalanishi. Ish haqini tashkil qilish

15

shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi. Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va jitmioiy sug'urta tizimi. Ochiik va yopiq turdagi kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarni tartibga solishda davlatning roli. Davlatning ish haqi siyosati. Respublikada mehnatni rag'batirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosati amalg'a oshirishda qo'lga kiritilgan natijalar. "Sog'lom bola" yili davlat dasturidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar.

13-Mavzu. Agrar munosabalar va agrobiznes.

Agrar munosabalar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. YErning resurs sifatidagi o'ziga xos hususiyatlari. YErning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. YEr mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. YErge egalik va yerdan foydalanish huquqi. YEr rentasi mazmuniga bo'lgan turli xil yondashuvlar va yer rentasining tarixiy shakllari. YEr rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalardan olinadigan renta. Ijara haqi. YErning narxi va uni belgilovchi omillar. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majyasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat birlashmasi, agrosanoat kombinati. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. YErge mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari. SHahsiy tomorqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va jitmioiy infratuzilmani jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

14-Mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.

Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'ton qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Jitmioiy faktor ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va Yalpi ichki mahsulot. Nominal va real Yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Xurfiyona iqtisodiyot, uning

o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy mahsulot (YALMI)ni ko'paytirish omillari va yo'llari. Milliy hisoblar tizimi. YALMI hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YALMI hisoblashga sarf-xarajalar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. CHet elliklarning sarflari. YALMI hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv. O'zbekiston iqtisodiyoti etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadalashirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash milliy mahsulotni kupaytirishning ustivor yo'nalishi sifatida.

15-Mavzu. Yalpi talab va Yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi. Yalpi talab va Yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi. AD-AS modeli. Yalpi talab va Yalpi taklif egri chiziqdarning keshishi. Xropovik samarasi. Milliy bozorning to'yinganlik darajasi. Taqchilikning iqtisodiy tabiati va uni bartaraf qilish yo'llari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etib turgan va ayrim mamlakatlarda o'rtasida ziddiyat kuchaygan hozirgi sharoitda Yalpi talabning qisqarishi hamda uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar.

16-Mavzu. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbaning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma funksiyasi. Iste'mol va jamg'arma xajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash. Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noislab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Investitsiya funksiyasi. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbat. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtasidagi farqlar. O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari. Milliy

iqtsodiyotni rivojlantirishda ichki investitsiya manbalari safarbar etish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning ahamiyati. Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi. O'zbekistonda yo'l-tarmon va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishga sarflanyotgan investitsiyalar va uning ahamiyati.

17-Mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.

